

**O'ZBEKISTONNING JANUBIY MINTAQASI IQTISODIY GEOGRAFIK
O'RNINI BAHOLASH VA YAHSHILANIB BORISHI**

Choriyev Abdurashid Qodirovich

mustaqil tadqiqotchi

ANNOTATSIYA: Mazkur ilmiy tezisda viloyat miqyosidagi **geodemografik holat** aholining soni, zichligi, joylashuvi, yosh-jins tarkibi, tabiiy o'sishi va migratsiya jarayonlarining mintaqaning **ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri** chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda demografik ko'rsatkichlar bilan hududiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlanadi va ularning rejalashtirish, resurslarni taqsimlash, infratuzilma rivoji hamda xizmat ko'rsatish tizimlariga bo'lgan ta'siri yoritiladi. Shuningdek, aholining hududiy taqsimoti, mehnatga layoqatli qatlamning ulushi va migratsiya oqimlari iqtisodiy faollik, bandlik darajasi, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi sohalarining rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi misollar orqali asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari asosida geodemografik omillarni hisobga olgan holda hududiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *mintaqa, ishlab chiqarish, aholi, maydon, xo'jalik, geosiyosiy, ta'sir, iqtisod, o'rin.*

Mamlakatimizning alohida mintaqasi sifatida Surxondaryo viloyati o'zining bir qator iqtisodiy geografik ko'rsatkichlari bilan boshqa viloyatlardan ajralib turadi. Jumladan, u 2023-yil ma'lumotlariga asosan respublikada egallagan maydoniga ko'ra 6 o'rinda tursa, aholisining soni bo'yicha 8, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga ko'ra 10, qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmi bo'yicha 7, yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ko'ra 10 o'rinlarni egallaydi¹.

Demak, viloyatning tabiiy geografik hamda uning geosiyosiy o'rnini mintaqaga IGO'ga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bu holat viloyat iqtisodiyotining asosan

¹ Болтаев Б. Сурхондарё вилояти фойдали қазилма ресурсларидан фойдаланиш географияси // Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Термиз, 2006. – Б. 140-141.

qimmatbaho qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirib berishga ixtisoslashuviga sabab bo'lgan.

2023-yil ma'lumotlariga ko'ra viloyat YAIMning 105,9 foizi (40909,8 mlrd. so'mlik mahsulot) qishloq xo'jaligi xissasiga to'g'ri keladi. Viloyat qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari bo'yicha respublikada 7-o'rinni egallaydi va u bu turdagi mahsulotlarning 8,1 foizini beradi².

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligida zamonaviy ilmiy-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi serhosil navlar yaratish, mintaqa tabiiy sharoitiga to'g'ri keluvchi intensiv usullardan foydalanish asosida ushbu sohani rivojlantirishga harakat qilinmoqda. Agroiqtisodiyot tizimida band bo'lgan ekin maydonlarining qisqarishiga qaramay viloyatda qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Masalan, 2013-yil jami ekin maydonlari 280,5 ming ga bo'lgan bo'lsa, 2023-yil bu ko'rsatkich 272,2 ming ga.ga teng bo'ldi. Ushbu yillar orasida qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti hajmi 118,1 mlrd. so'mdan 854 mlrd so'mga ko'tarildi, ya'ni yalpi mahsulot hajmi 7 barobardan ko'proq oshdi.

Viloyat tumanlari orasida Denov, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Oltinsoy, Sherobod tumanlari qishloq xo'jalik rayonlari hisoblanib, ushbu hududlarda qishloq xo'jalik yalpi mahsulotining yarmiga yaqini yaratiladi.

Dehqonchilik qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lib, umumiy qishloq xo'jaligi mahsulotining taxminan 55 foizini beradi. Dehqonchilikning yetakchi tarmog'i-paxtachilik (345,6 ming tonna) respublika paxtasining 10 % dan ortig'ini, shu jumladan, ingichka tolali paxtaning 75 foizga yaqinini beradi. Denov (13%), Muzrabot (12%), Sherobod (11,4%) tumanlari viloyatda asosiy paxta yetishtiruvchi hududlar hisoblanadi. Respublika don mahsulotlarining 9 % ni beradigan donchilik sohasi viloyat dehqonchiligining ikkinchi muhim tarmog'i sanaladi. 2023-yilda 778,5 ming tonna donli mahsulotlar yetishtirilgan va bu sohada Jarqo'rg'on (80,1 ming t.), Denov (89,4 ming t.), Muzrabot (134,3 ming t.), Sherobod (102,7 ming t.) tumanlarining ulushi katta. Shuningdek, viloyat

² Дуйсебаева К.Д. Экономико-географическое положение Республики Казахстан – фактор интеграционного и регионального развития // Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. - Т., 2006. - 6. 201-203.

respublikada birinchilar qatorida ertapishar sabzavotlarning 7,1, poliz mahsulotlarining 9,5, uzumning 5,8, mevalarning 5,6 foizini yetkazib beradi.

Viloyat qishloq xo'jalik mahsulotlarining 45 foizi chorvachilik hissasiga to'g'ri keladi. Bu tarmoqda 2013-2023-yillar oralig'ida 6 marta o'sish yuz berganini ko'rsatadi. Ushbu tarmoq tarkibida qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, yilqichilik, parrandachilik, ipakchilik kabi tarmoqlar asosiy o'rin egallaydi. Go'sht-sut ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qoramolchilik viloyatning deyarli barcha tumanlarida mavjud bo'lsa, tog'li tumanlarida hisori qo'ylar boqish, cho'l zonasida qorako'l qo'ylar boqishga ixtisoslashgan. Yilqichilik asosan tog'li zonada, parrandachilik va pillachilik tarmoqlari esa tekislik zonasida rivojlangan.

Mustaqillik yillarida chorva mollari sonini ko'paytirish ishlari olib borilib, 2013-yildagi 464 ming shartli boshdan 2023-yilga kelib 625,5 ming shartli boshga yetkazildi, ya'ni bu sohada 134,8 foiz o'sish yuz berdi. Hozirda viloyat chorvachiligi mamlakatda mavjud qoramollarning 7,8, qo'y va echkilarning 11,4, parrandaning 5,5 foizini o'zida mujassam etgan. 2023-yil yakunlariga ko'ra, respublika chorvachilik mahsulotlarining 8% viloyatda yetishtirilib, ushbu sohaning asosiy mahsulotlari hisoblangan go'shtning 7,8, sutning 8,3, tuxumning 5,5 foizi mintaq xissasiga to'g'ri kelgan³. Surxondaryoda chorvachilikni rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanib, avvalo, chorva mollarining naslini yaxshilash, turli kasalliklardan himoya qila oluvchi zamonaviy veterinariya xizmatini to'g'ri yo'lga qo'yish zarur.

Mintaqa qishloq xo'jaligi tarmoqlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, bu yerda qishloq xo'jalik mahsulotlarining taxminan 70 foizi tekislik, 18 foizi adir va 12 foizi tog'li zonada yaratilmoqda. Xususiy mulkchilikning rivojlanishi qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklari salmog'i oshib borishiga sabab bo'lmoqda. 2023-yil paxtachilik va g'allachilik bo'yicha shartnoma majburiyatlarining bajarilishida hududda faoliyat ko'rsatayotgan 15103 ta fermer xo'jaliklarining xissasi katta bo'ldi⁴.

³ Давидович В.Г. О закономерностях и тенденциях городского расселения // Материалы I межведомственного совещания по географии населения. Вып. 1. Изд. Географического общества, М.-Л., 1961. С. 18-21.

⁴ Назарова Х.М., Усмонов З.К. Минтақаларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришда хорижий инвестицияларнинг роли // Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2008. 6.138-140.

Qishloq xo'jaligining yanada rivojlanishi uchun viloyatda zaruriy shart-sharoitlar yetarli bo'lib, sug'oriladigan ekin maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash, mintaqada ijobiy samara beruvchi ekin va chorva mollarining yangi turlarini yaratish, eng asosiysi esa, yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlarni rivojlantirish zarur. Masalan, Surxondaryo viloyatida yiliga 1200 tonna pilla xom ashyosi yetishtiriladi, biroq bu yerda shu vaqtgacha pilla qayta ishlash korxonasi tashkil etilmagan edi⁵. Bu masala yuzasidan respublika prezidenti SH. M. Mirziyoyevning 2019-yilgi xalq deputatlar viloyat kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqida ham alohida to'xtalib o'tgan edi. Mazkur sohani rivojlantirish uchun 2022-2026-yillar oralig'ida Jarqo'rg'on va Qumqo'rg'on tumanlarida pillani qayta ishlash, Muzrabot tumani, Termiz shahri va tumanida ipak gazlama ishlab chiqarish korxonalari barpo etish rejalashtirilmoqda.

Viloyat xo'jaligining rivojlanishida mintaqada mavjud sanoat tarmoqlarining ham hissasi katta. Biroq boy tabiiy resurslar bo'lishiga qaramay viloyatda sanoat o'tgan asrning 50-yillarga borib taraqqiy eta boshladi. Bunga viloyat hududida keng ko'lamda olib borilgan kon qidiruv ishlarining natijalariga ko'ra istiqbolli konlar topilganligi va paxtani birlamchi qayta ishlovchi yirik korxonalarning qurilishi sabab bo'ldi. Bu davrgacha esa qurilish materiallari sanoatining g'isht va ohak tayyorlash, yengil va oziq-ovqat sanoatining don yanchish, paxta tozalash va yog' ishlab chiqarish sohalarigina mavjud bo'lgan⁶, xolos.

1927-yilda Termizda IES ishga tushirilgan bo'lsa, 1929-1941-yillar davomida Denov, Xayrobod, Sherobod paxta tozalash zavodlari, Termiz shahrida go'sht kombinati, non va yog' zavodlari, Denov shahrida motor ta'mirlash va sharob zavodlari, «Xovdag», «Uchqizil», «Kakaydi» neft konlari ishga tushdi⁷.

1971-yilda Qumqo'rg'on gidrouzeli, Uzun, Jarqo'rg'on, Angor va

⁵ Сатторов А. Сурхондарё вилояти қишлоқ аҳоли манзилгоҳларининг сони ва таркибий тузилишидаги ўзгаришлар // Ўзб. ГЖ ахбороти. 32-жилд. – Т., 2008. – Б. 85-88.

⁶ Сатторов А. У. Сурхондарё вилояти қишлоқ аҳоли манзилгоҳларининг ривожланиш ва жойлашиш хусусиятлари. Геогр. фан. ном. илм. дар. олиш учун дис. автореф. – Т., 2008 – 26 б.

⁷ Набиев Э., Қаюмов А. Ўзбекистоннинг иқтисодий салоҳияти. – Т., 2000. – 87 б.

Muzrabot paxta tozalash zavodlari, Denovda yogʻ-ekstraksiya, konserva, pivo zavodlari, shakarqamish davlat xoʻjaligi hududida rom zavodi, Sariosiyoda gʻisht va mayda shagʻal saralash, Qumqoʻrgʻonda taʼmirlash-mexanika, temirbeton buyumlari ishlab chiqarish zavodlari, «Lalmikor» neft koni va boshqalar ishga tushirildi. Natijada, viloyat sanoatining asosini tashkil etuvchi yoqilgʻi-energetika, mashinasozlik, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoati kabi tarmoqlar barpo etildi⁸. Sanoat tarmoqlari shakllanishining kech boshlanganligi hozirda viloyatda sanoat majmuasi, ichki tarmoqlar tuzilishi va hududiy tashkil etilishining takomillashmaganligiga sabab boʻlgan.

Mavjud tarmoqlar asosan mahalliy xom ashyoni qayta ishlashga ixtisoslashgan edi. Viloyatning markazdan uzoqligi, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirishga qulayligi, asosan paxta yetishtirish va uni birlamchi qayta ishlashga ixtisoslashganligi sababli viloyat respublikada sanoat rivojlantirish darajasiga koʻra soʻnggi oʻrinlardan birini egallab kelgan. Jumladan, 1970-yilda jami ishlab chiqarilgan mahsulotning aholi jon boshiga toʻgʻri kelish indeksi boʻyicha viloyat koʻrsatkichi 0,56 ga teng boʻlgan. Xuddi shu yil sanoat rivojlanish darajasiga koʻra 0,48 koʻrsatkichi qayd etilgan boʻlib, bu koʻrsatkich Toshkent viloyatidan 3 marta, respublika oʻrtacha koʻrsatkichidan esa 2 marta kam. Qayd etilgan holat keyingi yillarda ham ijobiy tomonga oʻzgarmadi⁹.

Mustaqillikka erishgach, barcha sohalarda boʻlgani kabi sanoatda ham tub oʻzgarishlar yuz berdi. Surxondaryo viloyati sanoati oʻtish davri qiyinchiliklari natijasida baʼzi sohalarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi kamaydi, ayrimlari esa oʻz faoliyatini toʻxtatdi. Mahsulot ishlab chiqarishda nodavlat sektorining oʻrni koʻrina boshladi. Masalan, 1999-yil ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 92 foizi nodavlat sektorida ishlab chiqarilgan boʻlsa, 2023-yilga kelib bu koʻrsatkich deyarli 100 foizga yetganligini koʻramiz.

⁸ Рўзиев О. Агрисаноат мажмуаси ривожланишининг худудий хусусиятлари (Сурхондарё вилояти мисолида). Иқтисод. фан. ном. илм. дар. олиш учун дисс. автореф. – Т., 2002 – 21 б.

⁹ Сафарова Н.И. Сурхондарё вилояти иқтисодий географик ўрнининг ўзига хос хусусиятлари //Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2006. Б 228-229.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Болтаев Б. Сурхондарё вилояти фойдали қазилма ресурсларидан фойдаланиш географияси // Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Термиз, 2006.
2. Дуйсебаева К.Д. Экономико-географическое положение Республики Казахстан – фактор интеграционного и регионального развития // Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. - Т., 2006.
3. Давидович В.Г. О закономерностях и тенденциях городского расселения // Материалы I междугосударственного совещания по географии населения. Вып. 1. Изд. Географического общества, М.-Л., 1961.
4. Назарова Ҳ.М., Усмонов З.К. Минтақаларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришда хорижий инвестицияларнинг роли // Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2008
5. Сатторов А. Сурхондарё вилояти қишлоқ аҳоли манзилгоҳларининг сони ва таркибий тузилишидаги ўзгаришлар // Ўзб. ГЖ ахбороти. 32-жилд. – Т., 2008.
6. Сатторов А. У. Сурхондарё вилояти қишлоқ аҳоли манзилгоҳларининг ривожланиш ва жойлашиш хусусиятлари. Геогр. фан. ном. илм. дар. олиш учун дис. автореф. – Т., 2008.
7. Набиев Э., Қаюмов А. Ўзбекистоннинг иқтисодий салоҳияти. – Т., 2000.
8. Рўзиев О. Аграрно-иқтисодий мажмуаси ривожланишининг ҳудудий хусусиятлари (Сурхондарё вилояти мисолида). Иқтисод. фан. ном. илм. дар. олиш учун дисс. автореф. – Т., 2002.
9. Сафарова Н.И. Сурхондарё вилояти иқтисодий географик ўрнининг ўзига хос хусусиятлари //Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2006.